

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025-yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Andijon viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 34 429,4 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar –33 478,8 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 757,9 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 192,7 mlrd so'mni tashkil qildi.

Andijon viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Jalaquduq (3 689,1 mlrd so'm), Asaka (3 394,5 mlrd so'm), Shahrixon (3 224,2 mlrd so'm), Paxtaobod (2 863,9 mlrd so'm), Marxamat (2 607,2 mlrd so'm) va Baliqchi (2 425,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (334,8 mlrd so'm) va Andijon shahri (966,1 mlrd so'm), Ulug'nor tumani (1 378,9 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Andijon viloyati	34 429,4	101,0
Andijon shahri.	966,1	90,6
Xonobod shahri	234,8	105,4
Oltinko'l tumani	2 049,7	101,6
Andijon tumani	2 166,3	101,2
Baliqchi tumani	2 425,8	102,3
Bo'ston tumani	1 483,8	103,8
Buloqboshi tumani	1 911,9	102,0
Jalaquduq tumani	3 689,1	103,3
Izboskan tumani	2 042,2	102,6
Ulug'nor tumani	1 599,6	105,6
Qo'rg'ontepa tumani	2 391,4	101,0
Asaka tumani	3 394,5	100,7
Marxamat tumani	2 607,2	104,8
Shahrixon tumani	3 224,2	100,8
Paxtaobod tumani	2 863,9	93,9
Xo'jaobod tumani	1 378,9	96,8

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor (105,6 %), Xonobod (105,4 %), Marxamat (104,8 %), Jalaquduq (103,3 %) va Bo'ston (103,8 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Andijon sh. (90,6 %), Paxtaobod (93,9 %), Xo'jaobod (96,8 %), Asaka (100,7 %) va Shahrixon (100,8 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 33 187,9 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 100,8 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 18 621,4 mlrd so'mni (100,2 %), chorvachilik mahsulotlari 14 566,6 mlrd so'mni (101,9 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jalaquduq (3 634,4 mlrd so'm), Asaka (3 329,4 mlrd so'm), Shahrixon (3 030,9 mlrd so'm) va Paxtaobod (2 794,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (234,4 mlrd so'm), Andijon shahri (819,5 mlrd so'm) va Xo'jaobod tumani (1 337,7 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Ulug'nor (105,5 %), Xonobod shahri (105,4 %), Marhamat (104,5 %) va Bo'ston (103,7 %) tumanlarida qayd etildi. Andijon shahri (89,3 %), Paxtaobod tumani (93,7 %) va Xo'jaobod (96,7 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 69,2 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 27,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 3,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Asaka (1 474,0 mlrd so'm), Jalaquduq (1 387,9 mlrd so'm), Shahrixon (1 237,5 mlrd so'm), Paxtaobod (1223,7 mlrd so'm) va Qo'rg'ontepa (1 059,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahri (192,6 mlrd so'm), Andijon shahar (494,6 mlrd so'm) va Xo'jaobod tumani (537,0 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xo'jaobod (109,6 %), Asaka (108,0 %), Oltinko'l (104,2 %), Paxtaobod (103,7 %) tumanlarida qayd etildi. Andijon shahri (84,8 %), Baliqchi (95,9 %), Qo'rg'ontepa (98,8 %) va Ulug'nor (100,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 141,4 ming tonna go'sht, 706,5 ming tonna sut, 480,2 mln dona tuxum, 1 387,0 tonna qirqib olingan jun yetishtirildi va 10 321,5 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni, sog'ib olingan sut – 100,3 % ni, olingan tuxum – 102,9 % ni, qirqib olingan jun – 100,9 % ni, hamda ovlangan baliqlar – 109,8 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 9,4 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 82,0 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 7,8 foizi fermer xo'jaliklari, 90,3 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



**2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-Sentabr 2025-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	141,4	101,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	13,3	101,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	116,0	101,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	12,1	105,7
Sut, ming tonna	706,5	100,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	55,0	105,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	637,7	99,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	13,8	102,0
Tuxum, mln. dona	480,2	102,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	81,7	97,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	335,5	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	63,1	124,4
Jun, tonna	1 387,0	100,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	130,0	104,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 246,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,0	157,1
Baliq, tonna	10 321,5	109,8
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 846,0	102,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	113,3	112,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 362,2	128,2

Shu bilan birga, olingan tuxumning 17,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 69,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 13,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirib olingan junning 9,4 foizi fermer xo'jaliklari, 89,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,8 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 66,3 foizi fermer xo'jaliklariga 1,1 foizi, dehqon va tomorqa xo'jaliklariga 32,6 foizi, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.



**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht <i>(tirik vaznda), tonna</i>	Sut, <i>tonna</i>	Tuxum, <i>ming dona</i>
Andijon viloyati	141 414,0	706 506,0	480 182,0
Andijon shahri.	4 362,5	27 147,3	8 115,1
Xonobod shahri	2 250,0	5 095,0	4 688,0
Oltinko'l tumani	7 983,6	44 010,0	23 585,6
Andijon tumani	9 540,2	48 373,9	43 950,2
Baliqchi tumani	8 299,8	45 583,6	19 550,9
Bo'ston tumani	6 188,3	31 089,9	17 415,6
Buloqboshi tumani	8 906,1	48 399,7	15 272,2
Jalaquduq tumani	13 797,2	57 082,1	44 399,5
Izboskan tumani	7 821,7	53 515,3	17 251,4
Ulug'nor tumani	7 384,7	33 942,8	14 963,5
Qo'rg'ontepa tumani	9 238,8	57 977,8	19 994,0
Asaka tumani	17 269,6	63 119,9	94 714,6
Marxamat tumani	8 320,7	48 146,6	29 525,7
Shahrixon tumani	10 913,5	64 586,5	64 874,5
Paxtaobod tumani	13 181,4	57 174,3	47 806,9
Xo'jaobod tumani	5 955,9	21 261,3	14 074,3

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Jalaquduq (2 246,5 mlrd so'm), Asaka (1 855,4 mlrd so'm), Shahrixon (1 793,5 mlrd so'm), Marxamat (1 602,3 mlrd so'm) va Paxtaobod (1 570,8 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Xonobod shahrini (41,7 mlrd so'm), Andijon shahar (324,9 mlrd so'm) va Ulug'nor tumanini (662,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahar (114,4 %), Ulug'nor (110,0 %), Baliqchi (105,5 %), Bo'ston (105,0 %) va Mahamat (104,9 %) tumanlarida qayd etildi. Paxtaobod (88,2 %), Xo'jaobod (91,2 %), Andijon shahrida (95,5 %) va Asaka (96,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 434 744,1	93,8
Andijon shahri.	31 942,0	92,7
Xonobod shahri	1 248,8	149,9
Oltinko'l tumani	108 538,8	101,4
Andijon tumani	92 223,8	95,0
Baliqchi tumani	103 713,8	101,0
Bo'ston tumani	67 053,6	97,5
Buloqboshi tumani	77 739,4	99,2
Jalaquduq tumani	170 569,6	100,2
Izboskan tumani	68 514,8	99,3
Ulug'nor tumani	42 572,5	99,1
Qo'rg'ontepa tumani	101 527,8	97,4
Asaka tumani	149 750,7	90,7
Marxamat tumani	119 201,7	103,2
Shahrixon tumani	156 409,0	101,6
Paxtaobod tumani	111 683,5	65,0
Xo'jaobod tumani	32 054,3	68,4



Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Jalaquduq tumani (11,9 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Shahrixon (10,9 %), Asaka (10,4 %), Marhamat (8,3 %), Paxtaobod (7,8 %) hamda Oltinko'l (7,6 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Xonobod (0,1 %), Andijon shahri va Xo'jaobod tumanlarida (2,2 %) kuzatildi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Xonobod shahri (149,9 %), Marhamat (103,2 %), Shahrixon (101,6 %), Oltinko'l (101,4 %), Baliqchi (101,0 %) Jalaquduq (100,2 %), Izboskan (99,3 %), Buloqboshi (99,2 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025-yilning 1-oktabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 178,5 ming boshga yetdi, (2024-yilning 1-oktabr holatiga nisbatan 0,7 % ga ko'p), sigirlar 397,9 ming boshga (0,7 % ga kam), qo'y va echkilar 1 597,1 ming boshga (1,0 % ga ko'p), parrandalar 10 408,5 ming boshga (0,9 % ga kam) yetdi.

2025-yilning 1-oktabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar ming bosh	1 178,5	100,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	76,9	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 090,9	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10,7	102,5
shundan sigirlar ming bosh	397,9	99,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	31,8	105,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	360,4	98,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,7	104,5
Qo'y va echkilar ming bosh	1 597,1	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	95,4	101,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 487,2	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,5	127,7
Otlar bosh	7 667	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 876	105,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 647	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	144	132,1
Parrandalar ming bosh	10 408,5	99,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 620,8	105,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 527,8	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 259,9	94,3



2025-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,5 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 90,6 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarining umumiy sonidan 6,0 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,9 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 15,6 foizi fermer xo'jaliklariga, 53,1 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 31,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025-yilning 1-oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

(ming bosh)

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Andijon viloyati	1 178,5	1 597,1	10 408,5
Andijon shahri	28,7	56,3	91,4
Xonobod shahri	8,9	21,1	56,5
Oltinko'l tumani	82,7	82,9	339,1
Andijon tumani	67,4	92,7	918,2
Baliqchi tumani	86,7	83,7	537,5
Bo'ston tumani	53,7	50,9	343,3
Buloqboshi tumani	61,7	140,0	313,4
Jalaquduq tumani	103,4	131,5	856,2
Izboskan tumani	80,6	98,6	378,8
Ulug'nor tumani	50,6	65,7	656,7
Qo'rg'on tepa tumani	98,1	155,7	505,8
Asaka tumani	105,3	160,6	1 482,5
Marxamat tumani	95,4	155,8	537,1
Shahrixon tumani	103,5	124,8	931,9
Paxtaobod tumani	92,4	92,2	2 044,1
Xo'jaobod tumani	59,2	84,8	416,1

V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sultari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://andstat.uz/uz/default/press-relizlar/12820-2025>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
O. Mamajonov
74 224-80-00 (6110)

Manzil:

